

ONA TILI O'QITISHDA INSHO YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH (ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA)

Ro'zimurodova Sitora Maqsiddin qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o'qitishda insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirish muammosi, xususan insho yozish mahoratini oshirish usullari o'rganilgan. Tadqiqot davomida o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan samarali metodlar, innovatsion yondashuvlar va o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada insho yozish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, mavzuni tanlashdan tortib to yakuniy tahrirlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ona tili darslari jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va o'z fikrini aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablari, oliy ta'limning ona tili o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar. Insho, ta'limiy insholar, ko'rik-tanlov insholari, nazoratga qaratilgan insholar, interfaol metodlar, "Fikrlar xaritasi" metodi

DEVELOPING ESSAY WRITING SKILLS IN MOTHER TONGUE TEACHING (BASED ON MODERN METHODS)

Ruzimurodova Sitora

Uzbek Language and Literature program

Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. This article investigates the issues of developing essay writing skills in mother tongue teaching. It examines the problem of improving students' written communication skills, particularly methods for enhancing essay writing proficiency, under modern educational conditions. The research analyzed effective methods employed by teachers, innovative approaches, and strategies to overcome difficulties encountered in developing students' written communication. The article provides recommendations for organizing the essay writing process step-by-step, effectively implementing all stages from topic selection to final editing. Furthermore, the importance of fostering students' independent thinking, creative approach, and ability to clearly express their ideas during mother tongue lessons is highlighted. The research findings can serve as a practical guide for mother tongue teachers in general secondary education schools and higher education institutions.

Keywords: Essay, educational essays, competition essays, assessment-oriented essays, interactive methods, "Mind Map" method.

Kirish. Bugungi globallashuv davri yoshlardan yuqori darajadagi kommunikativ ko'nikmalarni, xususan, yozma nutq madaniyatini talab etmoqda. O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, tafakkurini o'stirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda insho yozish alohida o'rin tutadi. Yozma nutq - bu shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi va ma'naviy kamolotining ko'zgusidir. Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan,

"2022-2026- yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasidagi vazifalar ham o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu borada ona tili ta'limining roli beqiyosdir.

Insho - bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tizimli tahlil qilish va o'z fikrini izchil bayon etish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi muhim vositadir. Biroq, bugungi kunda ko'plab o'quvchilar insho yozishda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar: fikrlarni mantiqiy bog'lay olmaslik, orfografik va stilistik xatolarga yo'l qo'yish, o'z nuqtai nazarini asoslash va isbotlashda qiynalish kabi muammolar kuzatilmoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning insho yozish ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodikani ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Bugungi kun o'qituvchisi an'anaviy mashg'ulotlardan tashqari, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- 1. Insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha mavjud ilmiy-metodologik adabiyotlarni tahlil qilish;*
- 2. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;*
- 3. Insho yozish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;*
- 4. Ona tili darslarida insho yozish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi innovatsion usullarni joriy etishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.*

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda tilshunos olimlarimiz tomonidan insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish borasida ko'plab ilmiy-amaliy tatqiqodlar ishlab chiqilmoqda. Quyida ushbu izlanishlar bo'yicha o'z fikr, mulohazalarimizni bildirib o'tamiz. Ustoz olimlarimiz . O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyevalarning "Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant" metodik qo'llanmasida insho yozishning tartib, qoidalari hamda metodikasi batafsil yoritilgan. Mazkur qo'llanmada :

"Pedagogik maqsadiga ko'ra insholar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1. Ta'limiy insholar.
2. Nazoratga qaratilgan insholar.
3. Ko'rik-tanlov insholari" [1; 21]

kabi insho turlarini keltirib o'tadi.

Insholarning asosiy qismini ta'limiy insholar egallaydi. Ta'limiy insholar – bu o'quv jarayonida o'quvchilarning yozma nutqini, fikrlash doirasini, mantiqiy tafakkurini, mustaqil fikrlash va o'z fikrini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yozma mashqlardir. Ta'limiy insholarning qoralama va oq nusxalari bo'lmaydi va sinfda yoki uyda yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni tushunishga e'tibor qaratiladi. Insho orqali o'quvchi berilgan mavzu asosida o'z qarashlarini bayon etadi, dalillar keltiradi va xulosaga keladi.

Ta'limiy inshoning asosiy maqsadi:

- O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
- Til boyligini oshirish.
- Mustaqil fikrlashga o'rgatish.
- O'z fikrini izchil, mantiqli va adabiy tilda ifodalashga yo'naltirish.

Ta'limiy insholarning afzalliklari: Nutqni rivojlantiradi: Insho yozish o'quvchini o'z fikrlarini mantiqiy tartibda ifodalashga, adabiy tilda yozishga undaydi. Ijodkorlikni oshiradi: O'quvchi insho yozishda o'z qarashlarini, his-tuyg'ularini ifoda etib, ijodiy yondashishni o'rganadi. Mustaqil fikrlashni shakllantiradi: Tayyor shablonlardan voz kechib, o'quvchi mavzuni o'zicha tahlil qiladi va shaxsiy yondashuv bildiradi. Adabiy til normalarini o'rganishga yordam beradi: So'z boyligini oshirish, to'g'ri imlo, uslubiy va grammatik normalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Analitik va mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi: O'quvchi fikr yuritish, dalillash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi: Tarix, adabiyot, ma'naviyat, jamiyatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, kompleks bilimlar beradi.

Ta'limiy insho nafaqat yozma nutqni rivojlantirish, balki o'quvchini mustaqil, teran va izchil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim vositadir. Bu jarayon o'quvchini nutq madaniyatiga, fikr erkinligiga, mantiqiy va dalillarga asoslangan fikrlashga yo'naltiradi.

Insho yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati nihoyatda katta. Bu jarayonni samarali tashkil etish esa bevosita qo'llanilayotgan o'qitish metodlariga bog'liq. An'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy metodlarning joriy etilishi insho yozishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'quvchilarni faol ishtirokga jalb etadi va ularning shaxsiy fikrini mustaqil ifodalashiga zamin yaratadi. O'qituvchining vazifasi esa bu metodlarni o'rinli va samarali qo'llashdan iborat. Bu borada Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti G'arb tillari kafedrasida katta o'qituvchisi Akramxodjayeva Dilfuza Adug'aniyevnaning "Talabalarning insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali metod va texniklar" nomli maqolasida insho yozish jarayonida zamonaviy metod va usullarning ahamiyatini quyidagicha sharhlaydi: "1. Kichik guruhlarda ishlash Guruhiy ishlash usuli talabalarni o'zaro fikr almashishga

undaydi. Guruhlarda ishlash talabalarning hamkorlikda ishlash va boshqa talabalarning g'oyalardan ilhom olish imkonini beradi.

2. Venn diagramma va zanjirli fikrlar usuli. Bu metodlar talabalarni fikrlarini vizualizatsiya qilish va ularni mantiqiy tarzda bog'lashga o'rgatadi. Ayniqsa, qarama-qarshi g'oyalarni taqqoslash va zanjirli aloqalarni yaratish orqali talabalar o'z insholarini yanada aniqroq ifoda etadilar" [2;128]

Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, Toshkent viloyati Chirchiq shahar 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Qizilgul Turdimetovna Karbayevaning "Maktab adabiy ta'limida insho yozdirish, uni tekshirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari" maqolasida "Inshoni mazmunli yozish va berilgan mavzuni chuqur yoritishga erishish uchun o'quvchi oldin inshoga tegishli bo'lgan **mavzu, epigrafi, reja, tezis, dalil, kirish, asosiy qism, xulosa** kabi tushunchalarni puxta o'zlashtirib olishi zarur" [3; 1247] kabi izoh keltirib o'tiladi. Biz ushbu maqolada yuqoridagi tushunchalarni o'quvchilar oson va samarali o'zlashtirishi uchun qanday metodlarni qo'llasak, yuqori natijaga erishish mumkinligi haqida mulohaza yuritamiz.

Muhokama va natijalar. Ta'limiy insho turlarini o'quvchiga o'rgatishda zamonaviy metodlar qo'llanilishi, darsni faollashtiradi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlash va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. **Zamonaviy metodlar** – bu:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim,
- o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish,
- bilimni mustaqil izlash va yaratishga yo'naltirilgan uslublardir.

Bu metodlar asosida o'quvchi:

- erkin fikr bildiradi,
- fikrini asoslaydi,
- tajriba orttiradi,

- tahlil qiladi,
- ijod qiladi.

Insho mavzusini tanlash jarayonida “Erkin mikrofon” metodini qo’llash, ko’zlangan natijaga erishishda yordam beradi. Ushbu metodning amalga oshirilishini quyida amaliy jihatdan yoritib beramiz:

“Erkin mikrofon” metodi – bu o’quvchilarga dars vaqtida o’z fikrini erkin ifoda etish imkonini beradigan interfaol metoddir. Unda o’quvchilar navbat bilan sinf oldiga chiqib, belgilangan yoki o’zlari tanlagan mavzu haqida erkin suhbatlashadilar, his-tuyg’ularini ifoda etadilar.

O’qituvchi dars boshida umumiy bir savol beradi yoki mavzu yo’nalishini belgilaydi (masalan: “Menga ta’sir qilgan voqea”, “Yoz fasli sizga nimani eslatadi?”, “O’zingiz faxrlangan bir holatni eslang”). Sinfda erkinlik muhiti yaratiladi. O’quvchilar navbat bilan sinf oldiga chiqib yoki joyida turib, shu mavzuda 1-2 daqiqa erkin gapiradilar. Gapirishda mikrofon o’rnini bajaruvchi narsa (qalam, mikrofon, tayoqcha) berilishi mumkin — bu usul o’yin tusini oladi va ishtiyoqni oshiradi. O’quvchilar bir-birining chiqishlarini tinglaydi. So’ng o’z chiqishidan kelib chiqib **insho mavzusini** tanlaydi (masalan, “Maktabdagi unutilmas kun”, “Do’stimning yordamidan minnatdorman”, “Qishloqdagi yozgi ta’tillar” va hokazo).

Amaliy misol:

O’qituvchi: “Erkin mikrofon: bugun har biringiz hayotingizdagi bir quvonchli yoki ta’sirli lahzani ayting.”

Dilnoza: “Onam meni maktabga birinchi olib kelgan kunimni hech qachon unutmayman.”

Jasur: “Men bu yil ilk bor futbol musobaqasida g’olib bo’ldim.”

Shundan so’ng Dilnoza “Maktab — mening ikkinchi uyim”,- degan mavzuni tanlashi mumkin, Jasur esa “G’alabaga eltgan yo’l” mavzusida insho yozadi.

Ushbu metodning afzalliklari quyidagicha: o'quvchilarni shaxsiy fikr bildirishga rag'batlantiradi; mavzu tanlashda ichki ehtiyoj va kechinmalarga tayanadi; nutq madaniyati, ijodiy fikrlash va xotirani faollashtirishga xizmat qiladi; darsda interaktivlik va emotsional aloqani kuchaytiradi.

Insho **rejasini** tuzishda quyidagi interfaol metoddan foydalanish, samaradorlikka erishishda yordam beradi. **“Fikrlar xaritasi”** metodidan foydalanish, reja tuzishdan oldin asosiy g'oyalarni ko'rib chiqish imkonini beradi; fikrlar tartiblanadi va asosiy mazmun ajralib chiqadi. “Fikrlar xaritasi — bu mavzuga oid barcha fikrlar, g'oyalar, tushunchalarni vizual tarzda ko'rsatish usulidir. Markazda mavzu bo'ladi, undan esa bog'liq fikrlar tarqaladi. Quyida ushbu metodni amaliy jihatdan ko'rib chiqamiz:

O'quvchilar 3–4 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga bitta mavzu beriladi (yoki o'zi tanlaydi). O'quvchilar mavzuni markazga yozadi. Tarqalgan asosiy fikrlarni yozadi va xarita asosida rejani tuzadi.

Masalan, “Ona” mavzusini olaylik, ona haqida umumiy tushuncha beriladi. Asosiy tushunchalar doskaga yoziladi, masalan, mehr, tarbiya, xizmatlari, qadrlash, onani asrash, minnatdorchilik kabi. So'ngra yuqoridagi tushunchalarni birlashtirgan holda insho rejasi tuziladi. Insho rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ona – hayotimizning muhim shaxsidir
2. Onaning oiladagi mehnati va xizmatlari
3. Onani qadrlash va hurmat qilishning ahamiyati
4. Onaning sog'ligiga e'tibor berish va uning hayot sifatini yaxshilash

“Fikrlar xaritasi” metodining qulayliklari va afzalliklarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- ❖ O'quvchi yoki yozuvchi boshida to'plangan fikrlarni tartib bilan joylashtiradi.

- ❖ Har bir g'oya asosiy va ikkinchi darajali bo'lib ajraladi.
- ❖ Murakkab mavzularni qismlarga ajratib, tushunishni osonlashtiradi.
- ❖ Bir asosiy g'oyadan ko'plab kichik fikrlarni ishlab chiqishga yordam beradi (ijodkorlikni rivojlantiradi).
- ❖ Vizual shakl tufayli o'quvchilar ma'lumotni tez va uzoq muddatga yodlab qoladilar.
- ❖ Dars yoki insho yozishda vaqtni tejaydi, chiroyli va puxta reja tuzishga yordam beradi.
- ❖ Kichik yoshdagi o'quvchilardan tortib, talabalar va pedagoglargacha foydalanishi mumkin.

Xulosa. Insho yozish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutq madaniyatini va ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unda interfaol metodlardan foydalanish esa jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Xususan, “Aqliy hujum”, “Fikrlar xaritasi”, “Klaster usuli”, “Sinkveyn”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar o'quvchilarda mavzuni chuqur anglash, asosiy g'oyalarni aniqlash va ularni mantiqiy bayon qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Interfaol metodlar yordamida inshoni rejalashtirish, matnni tahlil qilish va baholash bosqichlari ham samarali tashkil etiladi. Shu bois, insho yozishga o'rgatishda interfaol yondashuvlarni qo'llash nafaqat o'quvchilar bilimini oshiradi, balki ularni ijodiy fikrlashga ham undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Madayev O., Sobirov A., Sobirov A., Xolmonova Z. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
2. Karbayeva Qizilgul Turdimetovna. Maktab adabiy ta'limida insho yozdirish, uni tekshirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari. Scientific progress-2021.

3. Akramxodjayeva Dilfuza Adug'aniyevna. Talabalarning insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali metod va texniklar. The Lingua Spectrum-2024.
4. Madayev O. Insho qanday yoziladi? O'rta maxsus o'quv yurtlarining o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma .-T.: O'qituvchi, 1991.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
6. Tursunov U., Muxtorova J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
7. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 2000.
8. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent: „Fan” nashriyoti, 2005
9. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent, 1987.
10. G'ulomov A. K. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 1991